

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


Doimiy aholi soni.

Farg`ona viloyatining doimiy aholisi soni 2018 yil 1 oktabr holatiga 3 665,6 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-sentabr oylarida 59,8 ming kishiga yoki 1,7 foizga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 2073,0 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 56,6%), qishloq aholisi soni 1592,6 ming kishini (43,4 %) tashkil etdi.


E'tibor bering: 2018 yil yanvar-sentabr

- Aholi soni **101,7** foizga oshdi.
- Tirik tug'ilganlar soni **58,7 ming** nafarni tashkil etdi.
- **12,1 ming** ta vafot etganlar qayd etildi.
- Shahar, tuman hokimliklarining FHDYO bo'limlarida **17,1 ming** ta nikoh va **2,2 ming** ta ajralishlar ro'yxatga olindi.

Farg`ona viloyati aholisining umumiy o'sishi (2018 yil yanvar-sentabr oylarida)



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2018 yil 1 oktabr holatiga, ming kishi)




Viloyat hududlari kesimidagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil 1 oktabr holatiga eng ko'p aholi soni Farg'ona shahrida 282,0 ming kishi (viloyat aholisi sonidagi ulushi 7,7 %) va Quva tumanida 251,4 ming kishini (6,9 %), aksincha eng kam aholi soni Quvasoy shahrida 91,3 ming kishi (2,5 %) va So'x tumanida 75,6 ming kishini (2,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Uchko'prik tumanida 2,0 %, Qo'shtepa va Tashloq tumanlarida 1,9 %, Bag'dod va Buvayda tumanlarida 1,8 %, aksincha eng kam o'sish sur'ati Qo'qon va Marg'ilon shaharlarida 1,2 % ni tashkil etdi.



Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo'linishi (2018 yil 1 oktabr holatiga, ming kishi)



Demografik holat



Ma'lumot uchun:

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pul-satsiyasi, muskullarning beix-tiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm

Tug'ilish. 2018 yilning yanvar-sentabr oylarida 58,7 ming ta bola tug'ilganligi qayd bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 21,5 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,7 promillega ortgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Uchko'prik tumani (22,3 promilledan 24,0 promillega) va Qo'qon (18,2 promilledan 19,8 promillega) shaharlarida sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish So'x (20,1 promilledan 19,1 promillega) tumanida kuzatildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha tug'ilganlar soni (yanvar-sentabr, kishi)

	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati
Farg'ona viloyati	55786	58697	105,2
Farg'ona sh.	3 475	3489	100,4
Qo'qon sh.	3 323	3651	109,9
Quvasoy sh.	1 336	1416	106,0
Marg'ilon sh.	3 428	3615	105,5
Oltiariq	2 941	3196	108,7
Qo'shtepa	3 066	3202	104,4
Bag'dod	3 335	3453	103,5
Buvayda	3 456	3676	106,4
Beshariq	3 276	3430	104,7
Quva	3 814	3907	102,4
Uchko'prik	3 603	3955	109,8
Rishton	3 088	3214	104,1
So'x	1 111	1073	96,6
Toshloq	3 304	3357	101,6
O'zbekiston	3 563	3889	109,1
Farg'ona	3 301	3523	106,7
Dang'ara	2 867	3000	104,6
Furqat	1 778	1851	104,1
Yozyovon	1 721	1800	104,6

Demografik holat

Vafot etganlar. 2018 yilning yanvar-sentabr oylarida 12,1 ming ta o'lim qayd etilgan bo'lib, barcha shahar, tumanlarda 2017 yilning mos davriga nisbatan pasayish yuz bergan. 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,5 promilni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,4 promillega kamaydi.

O'lim koeffitsiyentining sezilarli darajadagi kamayishi Qo`qon shahri (5,8 promilledan 5,1 promillega), Toshloq (4,9 promilledan 4,3 promillega) va Quva (4,7 promilledan 4,1 promillega) tumanlari hamda Quvasoy shahrida (4,9 promilledan 4,2 promillega) kuzatildi.

Vafot etganlar



Erkaklar:
6,6 ming
kishi

Ayollar:
5,6 ming
kishi


Shahar va tumanlar bo'yicha o'lganlar soni (yanvar-sentabr, kishi)

	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati
Farg'ona viloyati	13041	12143	93,1
Farg'ona sh.	1 253	1147	91,5
Qo'qon sh.	1 063	940	88,4
Quvasoy sh.	315	281	89,2
Marg'ilon sh.	848	826	97,4
Oltiariq	678	627	92,5
Qo'shtepa	615	561	91,2
Bag'dod	670	650	97,0
Buvayda	653	596	91,3
Beshariq	755	737	97,6
Quva	863	769	89,1
Uchko'prik	702	652	92,9
Rishton	665	652	98,0
So'x	213	194	91,1
Toshloq	701	621	88,6
O'zbekiston	850	792	93,2
Farg'ona	760	735	96,7
Dang'ara	677	620	91,6
Furqat	464	450	97,0
Yozyovon	296	293	99,0

2018 yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 63,2 foizi qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 6,2 foizi baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 8,5 foizi o'simtalardan, 3,9 foizi nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 6,4 foizi ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 1,2 foizi yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 10,6 % foizi boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 334 nafarni tashkil etib, ularning 42,5 foizi perinatal davrda yuzaga kelgan holatlardan, 22,8 foizi nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 25,4 foizi tug'ma anomaliyalardan, 3,0 foizi baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,6 foizi yuqumli va parazitar kasalliklardan va 2,7 foizi boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, foizda)



Tabiiy o'sish. 2018 yilning yanvar-sentabr oylarida aholi -ning tabiiy o'sishi 46,6 ming kishini tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 3,9 ming kishiga (2017 yilning yanvar-sentabr oylarida 42,7 ming kishi bo'lgan) o'sgan.




Tabiiy o'sish:
46,6 ming kishi



Hududlar kesimida nikoh tuzish koeffitsiyenti

(2018 yil yanvar-sentabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Nikoh. 2018 yilning yanvar-sentabr oylarida shahar, tuman hokimliklarining FHDYO bo'limlari tomonidan 17 077 ta nikoh qayd etilib, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 6,3 promilleni tashkil etdi.


Tuzilgan nikohlar soni bo'yicha 2017 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 86,0 foizga tushib qolgan bo'lib, faqatgina So'x tumanidan (o'sish sur'ati 105,3 foiz) tashqari barcha shahar, tumanlarda pasayish holatlari yuz berdi.



Hududlar kesimida nikohdan ajralish

Nikohdan ajralishlar. 2018 yilning yanvar-sentabr oylarida shahar, tuman hokimliklarining FHDYO bo'limlari tomonidan 2 157 ta nikohdan ajralish holatlari qayd etilgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,8 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni bo'yicha 2017 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 83,8 foizga tushgan bo'lib, faqatgina Rishton (132,3 foiz), Qo'shtepa (111,8 foiz), Yozyovon (110,6 foiz) va O'zbekiston (102,6 foiz) tumanlarida o'sish



Shahar va tumanlar bo'yicha nikohlar va ajrimlar soni
(yanvar-sentabr, kishi)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>			<i>Nikohdan ajralishlar</i>		
	<i>2017 y.</i>	<i>2018 y.</i>	<i>o'sish sur'ati (%)</i>	<i>2017 y.</i>	<i>2018 y.</i>	<i>o'sish sur'ati (%)</i>
Farg'ona viloyati	19 849	17 077	86,0	2574	2157	83,8
Farg'ona sh.	1 376	1154	83,9	364	257	70,6
Qo'qon sh.	1 336	1154	86,4	311	233	74,9
Quvasoy sh.	473	437	92,4	89	70	78,7
Marg'ilon sh.	1 246	981	78,7	193	122	63,2
Oltiariq	1 100	983	89,4	109	99	90,8
Qo'shtepa	979	807	82,4	85	95	111,8
Bag'dod	1 133	1058	93,4	132	118	89,4
Buvayda	1 100	971	88,3	109	92	84,4
Beshariq	1 108	1040	93,9	151	123	81,5
Quva	1 330	1203	90,5	152	137	90,1
Uchko'prik	1 302	1055	81,0	130	79	60,8
Rishton	1 141	1005	88,1	96	127	132,3
So'x	301	317	105,3	29	27	93,1
Toshloq	1 095	826	75,4	96	81	84,4
O'zbekiston	1 257	1170	93,1	154	158	102,6
Farg'ona t.	1 286	1049	81,6	135	114	84,4
Dang'ara	1 038	807	77,7	110	99	90,0
Furqat	690	619	89,7	82	74	90,2
Yozyovon	558	441	79,0	47	52	110,6

Migratsiya. 2018 yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 9 609 kishini, ko'chib ketganlar soni esa 10 798 kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 1 189 kishi bo'lib, 2017 yilning o'tgan shu davrida minus 1 704 kishi bo'lgan.



Aholi migratsiyasi
(yanvar-sentabr, kishi)

	2017 yil	2018 yil
Ko'chib kelganlar	9 628	9 609
Ko'chib ketganlar	11 332	10 798
Migratsiya saldosini	-1 704	-1 189

O'tgan yilning shu davriga nisbatan ko'chib kelganlar soni 19 kishi, ko'chib ketganlar soni esa 534 kishiga kamaygan.

2018 yilning 9 oyi davomida migratsiya saldosining eng yuqori kamayish darajasi Marg'ilon (minus 660 kishi) va eng yuqori o'sish darajasi Farg'ona (1127 kishi) shaharlarida qayd etildi.

Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: **S. Meliqo'ziyev**

tel: (373) 230-87-33